

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.2021.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHOPULATOVA NASIBA UMIROVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA
GRAMMATIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shopulatova Nasiba Umirovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni
rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Шопулатова Насиба Умировна

Совершенствование методики развития грамматических компетенций
будущих учителей начальных классов 23

Shopulatova Nasiba Umirovna

Improving the methods of developing grammatical competencies among
future primary school teachers 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.2021.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHOPULATOVA NASIBA UMIROVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARIDA
GRAMMATIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida www.ziyo.net manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A‘zam Abdusalomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmanova Umida Aybekovna
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Kenjaeva Muhayyo Abdumurodovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2021.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025- yil «___» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel(99871) 276 -79-11; faks (99871) 276-80-86

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc03/30.01.2021 Toshkent davlat pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel(99871) 276 -79-11; faks (99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2025- yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, ped.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, ped.f.n.,dotsent

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, ped.f.d.,prof

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida mustaqil izlanish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ moduli mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Angliya va Germaniyada turli soha mutaxassislarining tilshunoslikda o'z kasbiy sohalarida erkin muloqot yurita olishlari, tilni o'qitishni kasbiy kompetensiyalar orqali rivojlantirish, o'quv dasturlari uyg'unligini shakllantirish, yirik amaliy loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. YUNESCO tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, global miqyosda ta'lim tizimlarining sifat-samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, pedagoglarning kompetensiyalarini aniqlash, ta'limning xalqaro miqyosda sifat-samaradorligini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'zbek tili asosida grammatik kompetensiyalarni takomillashtirish, o'qitish jarayonida bilim olish faoliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik tushunchalarni, ularning kasbiy faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kommunikativ munosabatlarni takomillashtirish, grammatik tushunchalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalar rivojlanishining modelini takomillashtirish, grammatik bilimlar olish faoliyatining mazmuni, shakllari va vositalarini aniqlashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda axborot muhitini keng joriy qilish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida erkin va mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirish, o'zbek tilini o'zlashtirgan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar yaratilmoqda. "O'zbek tili ta'limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an'ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan g'ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash"¹ ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, grammatik savodxonlikni bilish darajasini oshirish asosida o'zbek tilini o'rgatishni takomillashtirish shart-sharoitlari kuchaytirildi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmoni 1-ilovasi "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi".

to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi PF-606-son "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish A.A.Abduazizov, Y.N.Abdullayeva, L.T.Axmedova, G.K.Bakiyeva, G.N.Irmuxammedova, T.K.Sattorov, I.M.Tuxtasinov; oliy ta'lim muassasalarida ta'limni jadallashtirish va o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev; mustaqil ta'limning tashkiliy va metodik jihatlari N.A.Muslimov, R.R.Xusainov, O.A Qo'ysinovlar; ona tili fanini o'qitishda ijodiy fikrlash, grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish, nutq o'stirish N.G.Alovuddinova, A.Y.Bobomurodova, T.U.Ziyadova, K.M.Mavlonova, U.A.Masharipova, M.A.Kenjayeveva, O.V.Nuriddinova, L.M.Mambetova, I.B.Utayevalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH davlatlarida ta'limda tillarni o'qitish jarayonida pedagogik kadrlarning innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilish V.I.Andreyev, V.I.Arkipov, N.D.Galskova, C.I.Gessen, N.F.Talizina, E.V.Fedorovalarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Tillarni o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmalari va grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish M.Byram, D.Clark, D.Coste, G.Cheetham, B.Dodge, G.Diana, N.Jackson, M.Lewis, T.March, B.Tomlinsonlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan. (2020-2024 yy.)

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim olishi jarayonida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Navoiy innovatsiyalar universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalaridan 431 nafari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, DTS, o'quv rejalari va dasturlari, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test); pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yozma matnlarning sintaktik jihatini tahlil qilishga yo'naltirilgan didaktik harakatlar tizimlarining faol omillarini grammatik tushunchalar ierarxiyasi talablariga ko'ra tasniflash hamda inson ehtiyojlari piramidasiga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli grammatik qoidalar mazmuni kompetensiyaviy, refleksiv, tizimli, shaxsiy-faoliyatli, faoliyatli yondashuvlarning integrativ yaxlitligini ta'minlash hamda bilim olish faoliyati mazmun va shakllarini tahliliy aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi grammatik til faolligi darajasi baholashning reproduktiv, produktiv va kreativ darajalarini mazmunli komplekslash, grammatikaga oid axborot bilan ishlash ko'nikmasini oshirish va o'zlashtiriladigan topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi mustaqil izlanishga undovchi xususiyatlarni o'z-o'zini rivojlantirish xususiyatlariga adaptiv moslashtirish hamda mustaqil bilish faoliyatini rag'batlantirishni izchil qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv grammatik tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilgan;

kompetensiyaviy, motivatsion va integrativ yondashuvga asoslangan holda Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanidan darslik tayyorlangan; (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 10-martdagi 11-05-1504/04-sonli ma'lumotnomasi)

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar va usullar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik-statistik metodlari yordamida asoslangani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish, xalqaro ilg'or tajribalar, ona tilini o'qitish mohiyati, mazmuni va innovatsion ta'lim texnologiyalari takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta'lim muassasalarining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun o'quv dasturlari mazmuni tadqiqot natijalari asosida takomillashtirilgani, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanidan darslik yaratishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yozma matnlarning sintaktik jihatini tahlil qilishga yo'naltirilgan didaktik harakatlar tizimlarining faol omillarini grammatik tushunchalar ierarxiyasi talablariga ko'ra tasniflash hamda inson ehtiyojlari piramidasiga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar asosida "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanidan darslik yaratilgan. (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 10-martdagi 11-05-1504/04-sonli ma'lumotnomasi) Natijada til o'rganish istagida bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim olishi jarayonida grammatik savodxonligining o'sishiga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli grammatik qoidalar mazmuni motivatsion, kompetensiyaviy, refleksiv, tizimli, shaxsiy-faoliyatli, faoliyatli yondashuvlarning integrativ yaxlitligini ta'minlash hamda bilim olish faoliyati mazmun va shakllarini tahliliy aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar negizida "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik ishlab chiqilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 10- martdagi 11-05-1504/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishga va nutqiy muloqotga kirishish imkoniyatini oshirishga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi grammatik til faolligi darajasi, baholashning reproduktiv, produktiv va kreativ mezonlarini mazmunli komplekslash, grammatikaga oid axborot bilan ishlash ko'nikmasini oshirish va o'zlashtiriladigan topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar asosida "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik ishlab chiqilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 10-martdagi 11-05-1504/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim olish jarayonida grammatikani o'rganish orqali grammatik savodxonliklari rivojlanishiga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi mustaqil izlanishga undovchi xususiyatlarni o'z-o'zini rivojlantirish xususiyatlariga adaptiv moslashtirish va mustaqil bilish faoliyatini rag'batlantirishni izchil qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar asosida "Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslik ishlab chiqilgan (Nizomiy nomidagi TDPUning 2025-yil 10-martdagi 11-05-1504/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiziqishlari va ijtimoiy-kommunikativ, o'quv faoliyati hamda o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar, shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik muammolari, ularda grammatik tushunchalarni rivojlantirishning nazariy asoslari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida

grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar bayon etilgan.

Ona tili ta'limi ma'lum qoliplar asosida chegaralangan emas. Zero, grammatik kompetensiya rivoji bevosita bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi cheksiz xayol, yorqin tasavvur, keng dunyoqarash va chuqur ijodiy mushohadaning uyg'un rivojlanishiga ham har jihatdan aloqador. L.S.Vigotskiyning aynan rivojlangan ijodiy tasavvur ijodning asosini tashkil etuvchi yangi obrazlarni bunyod etadi degan fikrlari nutq va grammatik savodxonlik takomili o'qituvchidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi kreativlik sifatlarini tizimli, izchil va parallel holda rivojlantirish usullarini to'g'ri va maqsadli qo'llash malakasini taqozo etadi.

R.Niyozmetova fikricha, o'qituvchining so'zida hayotiylik muhim, o'quvchilar uchun qiziqarli muammo o'z o'rnida qo'yilsa, bolalar ongida bilish sari intilish uyg'otgan muammoning yechimini bersa, berilgan javoblar o'quvchilarni qanoatlantirsa, bunday nutq to'lalagicha qabul qilinadi.

Shu sababli "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi"ni o'rgatish uchun ishlab chiqilgan grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid topshiriqlarni bajarishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanga bo'lgan qiziqishlari muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi o'z kasbiy pedagogik malakasini oshirish, kasbiy faoliyatida yuqori yutuqlarga erishishdan iborat. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifa bo'lajak o'qituvchilarni passiv iste'molchilardan faol yaratuvchiga aylantirish, muammoni shakllantirish va uni hal qilish usullarini tahlil qilish, maqbul natijalarni topish va uning to'g'riligini isbotlashga qodir malakali pedagog kadrlarni yetishtirib chiqarishdir. Ta'limda shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini passiv iste'molchilardan faol ijodkorlikka yetkazish, muammolarni shakllantirishni hamda ularni hal etish usullarini tahlil qilish, maqbul natijalarni topish va ularning to'g'riligini isbotlashni bilishlari kerak.

So'z shaklini anglash, uni boshqa so'zlar bilan biriktirib tugal fikr anglatadigan gaplar yasash, shuningdek, fikrni tinglab va o'qib tushunish, grammatik ko'nikma va malakalarni egallashni talab qiladi. Metodik adabiyotlarda bu jarayon grammatik mexanizmni egallash, o'zlashtirish, grammatik malakalar shakllantirish, bilimlarni egallash, grammatik harakatni o'zlashtirish kabi ko'plab atamalar bilan ataladiki, nazarimizda ularning barchasini o'rniga birgina grammatik kompetensiyani shakllantirish atamasini ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa grammatik vositalardan og'zaki va yozma nutq jarayonida erkin foydalana olishni, shuningdek, tinglab tushunilgan va o'qilgan nutqdagi grammatik belgilarni to'g'ri farqlay olish darajasini anglatadi.

N.A.Polovnikovaning fikricha, grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida o'quv jarayonining mantig'iga muvofiq ilgari suriladi, ular tomonidan bajariladigan tegishli faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadi yoki o'qituvchi tomonidan tashqaridan kiritiladi. Dastlab tashqi sabab bo'lgan topshiriq ichki motivatorga, mustaqil harakat qilish qobiliyatini, o'rganish qobiliyatini o'zlashtirish motiviga aylanadi. Mustaqil ish mazmunini tuzish jarayonida vazifa

o'quv materialini mantiqiy va psixologik tashkil etish vositasi vazifasini bajaradi. Bu holda har qanday mustaqil ishning o'zagi sifatida vazifa mustaqil o'quv-bilish faoliyatining boshlanishi bo'lib, u o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlariga muvofiq ravishda talabning o'quv faoliyatining ma'lum bir tuzilishi bilan belgilanadi. Ushbu qoida asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv faoliyatida mustaqillikni shakllantirish o'quv faoliyatini amalga oshirishda yordam chorasini asta-sekin kamaytirish, shakllangan bilim, harakat va munosabatlarni qo'llash doirasini kengaytirish, reproduktiv vazifalardan ijodiy vazifalarga o'tish, ularni faoliyat subyektlariga aylantirish jarayoni sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha, ta'limning asosiy xususiyati uni o'qitishning ichki motivatsiyasi bilan belgilanadi. Biroq bu xususiyat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yetarli emas. Shuning uchun biz tadqiqotlarimiz jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini yozma matnlarning sintaktik jihatini tahlil qilishga yo'naltirilgan didaktik harakatlar tizimining faol omillarini ko'rib chiqdik. Didaktik harakatlar tizimining faol omillari sifatida grammatik birlik, grammatik xususiyatlarni rivojlantirishga, grammatik til faolligi darajasini oshirishga xizmat qiladigan interaktiv metodlardan foydalanish, so'z birikmasi, gap, sintaktik konstruksiyalar kabi grammatik birliklarning nazariy voqelikda o'rgatilishi, matn ustida ishlashda til materiallari tahlili olib borilishi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, didaktik harakatni boshqarish ko'nikmalari, ya'ni tahliliy fikrlashni shakllantirish, refleksiv faoliyat, ya'ni har bir dars yoki topshiriqdan so'ng tahlil qilish va o'zini -o'zi baholash kabi sifatlarni ko'rib chiqdik. Didaktik harakatlar tizimining faol omillari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini faollikka undovchi, grammatik bilimlarini amaliyotda, turli real va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olishga yo'naltiruvchi, tahliliy va refleksiv yondashuvlarni shakllantiruvchi omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Dissertatsiyada grammatik kompetensiya til o'rganishda asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, tilni to'g'ri, mantiqiy va aniq shaklda ishlatishni o'z ichiga oladi va o'qituvchining tilni aniq va to'g'ri tushunishi, uni o'quvchilarga tushuntirish, ularga o'rgatish malakasi deb ta'riflangan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari grammatik tushunchalarning to'g'ri va samarali o'rganilishini, shuningdek, tilni aniq va mantiqiy qo'llashni ta'minlashga yo'naltirilgan grammatik tushunchalar iyerarxiyasi talablari asosida grammatikaning asosiy qoidalari, morfologiya, sintaksis, fonetika, leksika kabi tarkibiy qismlari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida grammatik tushunchalar iyerarxiyasi talablarini quyidagicha tasnifladik.

Unga ko'ra grammatik tushunchalari ierarxiyasi talablariga bosqichma-bosqich o'rganish, konseptual yondashuv, xatoliklarni anglash va tahlil qilish, grammatik kategoriyalarni tushunish, jumlaning to'g'ri va sintaktik tahlilini qilish, amaliy muloqotga yo'naltirishi, o'zini-o'zi baholash va o'zlashtirish jarayoni kabi elementlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

S.I.Gessen quyidagi fikrni bildirgan: Darsning shoshma-shosharlik bilan ijodga aylantirilishi ijodkorlarni tarbiyalashga emas, balki haqiqiy ijodga har qanday yoʻlni yopadigan va noaniq umumiylikdan, taxminiy ijrodan qoniqadigan havaskorlarning shakllanishiga olib keladi.

Ona tili oʻqitishning jadallashuvida, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining bilim egallash qamrovi, intellektual salohiyati, mantiqiy fikrlash doirasi, dunyoqarashi, tafakkur qilish qobiliyati, kreativ va shaxsiy sifatlari samadorligida grammatik kompetensiyalarni rivojlantish metodikasining takomillashtirishi amaliy ishlarni taqozo qiladigan vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tili darslarida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari gaplarning semantik, grammatik, stilistik qurilishini taʼminlovchi soʻzlar, soʻzlarni bir- biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan vositalarni oʻz oʻrnida qoʻllashni amaliy egallash koʻnikmasi talab darajasida boʻlishi taʼkidlanadi. Buning uchun boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining grammatik kompetensiyalari rivojlangan boʻlishi asosiy sanaladi.

Til va tildan tashqari lisoniy omillar taʼsiriga moyil boʻlgan tilning leksik tuzilishi farqli oʻlaroq, tilning grammatik tizimi mustahkam barqarorligi bilan ajralib turadi, shuning uchun uni koʻp hollarda til markaziga, leksik tuzilishni esa, til periferiyasiga kiritishadi. A.A. Reformatskiyning fikricha, grammatika ushbu holatda markaziy oʻrinni egallaydi. Agar soʻz birikmasi bevosita voqelikni koʻrsatsa, fonetika esa bevosita sezgi organi tomonidan qabul qilinsa, grammatika har doim bilvosita boʻladi. Shunga qaramasdan, tilning grammatik tuzilishi leksika bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bunga quyidagi dalillar guvohlik beradi: soʻz til birligi sifatida bir vaqtning oʻzida ham leksika, ham grammatikaga tegishli: leksikaga u turli semantik munosabatlar bilan bogʻlangan va oʻz leksik maʼnosiga ega boʻlgan boshqa til birligi sifatida; grammatikaga soʻz bir vaqtning oʻzida ham morfologiyani birligi (muayyan grammatik guruhga tegishli, grammatik shakl va maʼnoga ega), ham iboralar va jumalarda ishlatiladigan sintaksis birligi sifatida tegishli; soʻz hosil boʻlishining ikki xil tabiati: soʻzlarning hosil boʻlishi tildagi morfema birikmalarining mavjud grammatik qonuniyatlariga koʻra amalga oshadi, bu qonunlarning harakati natijasida yangi leksik birliklar-soʻzlar yaratiladi; asoslovchi va asoslangan soʻzlarda umumiy grammatik xususiyatlarning mavjudligi; umumiy grammatik tushunchali maʼnosi (soʻzning leksik maʼnosi bilan birga), morfologik xususiyatlar va sintaktik vazifalari bilan birlashtirilgan soʻzlarning leksik va grammatik guruhlari boʻlgan nutq qismlariga taqsimlanish xususiyati; u yoki bu nutq boʻlagida oʻzining leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadigan leksik-grammatik toifadagi soʻzlarning mavjudligi.

Grammatikaning markaziy tushunchalari boʻlib, ular grammatik maʼno, grammatik shakl va grammatik kategoriya tushunchalaridir. Bular koʻpgina oʻziga xos grammatik birliklarning xususiyatlaridan chetga chiqish va bu chetga chiqishlarni yanada umumlashtirish natijasi boʻlgan qurilmalardir. Agar grammatik maʼno grammatik birlikning abstraktlashgan til mazmuni, grammatik shakl esa ushbu grammatik maʼnoning moddiy tomondan ifodalanish shakli boʻlsa, grammatik kategoriya – bu bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan grammatik shakllar qatori bilan ifodalangan bir xil grammatik maʼnolar majmuidir. Grammatik kategoriya oʻzining

bogʻlanishlari va munosabatlarida tilning grammatik tuzilishining oʻzagini tashkil etadi.

Tadqiqot ishida A.A.Reformatskiyning tilning leksik tuzilishi bilan bir qatorda tilning grammatik tizimi ham mustahkam barqarorligi bilan ajralib turishi, unda grammatika markaziy oʻrinni egallashi haqidagi qarashlar; S.Matjonovning darslarda boʻlajak mutaxassislarining ogʻzaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etishda mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini tashkil etishdagi qarashlar; V.S.Setlin, A.V.Konishevaning grammatik koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan qarashlariga, I.Utayevaning grammatik tuzilmalarni aniq tushunmaslik ona tilida soʻzlashuvchi odamni tasodifiy harakat qilishga majbur qilishi, bu esa nafaqat koʻp sonli xatolarni keltirib chiqarishi, balki nutq tezligini sezilarli darajada sekinlashtirishi haqidagi mulohazalariga tayanildi.

Grammatik kompetensiyalar oʻquvchilarga til oʻrganish va nutqni rivojlantirishda asosiy hisoblanib, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish juda muhimdir. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari grammatik birlik, grammatik xususiyatlarni samarali oʻrganish, grammatik til faolligi darajasini oshirish, til materillari tahlilini olib borish uchun yaratilgan sharoitlar va vositalarning majmuasini anglatadi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari taʼlimning maqsadlariga erishishda yordam beruvchi resurslar va metodlardan iborat boʻlib, ular oʻqitish usullari: suhbat, muhokama, amaliy mashgʻulotlar; oʻquv jarayonida foydalaniladigan barcha materiallar va vositalar; ularning motivatsiyalarini oshirish; oʻqish uchun qulay sharoitlar yaratish; ularning faol ishtirokini taʼminlash; taʼlim jarayonini boshqarish va ularning samaradorligini tahlil qilish imkoniyatlarini oʻz ichiga oladi. Bu imkoniyatlar taʼlimning maqsadlariga erishishda yordam beradi va boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga yaxshi bilim olish uchun sharoit yaratib, oʻquv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qiladi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari asosida ularga quyidagicha didaktik talablarni qoʻyish mumkin: grammatik kompetensiyalarni transformatsiyalash; kommunikativ yondashuvni qoʻllash; pedagogik refleksiya va oʻzini-oʻzi rivojlantirish; boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida subyekt-subyekt munosabatini rivojlantirish.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida oʻquvchilarga grammatik qoidalarni oʻrgatish uchun turli xil metodlar, jumladan, mashqlar, oʻyinlar, dialoglar va yozma ishlar orqali oʻrgatish amaliyotga ega boʻlishlari kerak. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish boʻyicha tahlil qilishda ham koʻp tajriba orttirishlari zarur. Bu oʻquvchilarga xatolarni tushunish va ulardan oʻrganish imkonini beradi.

Grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻz tiliga boʻlgan hurmatini oshiradi va ularga tilni aniq va toʻgʻri ishlatish koʻnikmalarini egallashda yordam beradi. Bu esa ularning umumiy til bilish darajasini yanada yuqori qilishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida grammatik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim olish faoliyati mazmuni, ularda grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi yoritib berilgan.

Ona tili grammatikasi tom ma’noda amaliy bo‘lishi kerak. Bunday grammatika umumiy xarakterga ega bo‘lib, u o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatmalar berishni osonlashtirish bilan bir qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil fikrlashga, o‘zlashtirilayotgan materialni ular tomonidan tushunib, idrok qilib borish imkoniyatini yaratishga qaratilgan bo‘lishi talab qilinadi.

Demak, ona tili grammatik materialini o‘zlashtirish til o‘qitish metodikasini kognitiv, ya’ni ongli ravishda idrok qilish didaktik g‘oyasiga suyanan holda tashkil qilish bilan bog‘liqdir. Kognitiv didaktika amallarining va ijtimoiy yo‘naltirilgan til ta’limining tadbiq qilinishi esa, o‘z navbatida, ta’lim qaysi muhitda va qay maqsadda o‘tayotganligi bilan bog‘liqdir. Aynan shunga nisbatan grammatik materialning tarkibiy miqdori, berilish tartibi aniqlanadi hamda grammatik mashqlarning eng qulay va unumdor turlari tanlanadi.

Grammatik tushuncha bilan tanishishning boshlang‘ich bosqichida yangi shakllangan tushunchani ilgari egallanganlardan farqlash tushunchalarning qarama-qarshiligiga asoslanadi. To‘g‘ri variantni tanlash bo‘yicha mashqlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqidagi ko‘p uchraydigan xatolarning oldini olishga yordam beradi.

Quyida grammatikani o‘qitishning usullarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Induktiv ta’lim. Grammatikani o‘rgatishning induktiv usuli ma’lum bir konsepsiyani ko‘rsatadigan bir nechta misollarni taqdim etishni va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ushbu misollardan tushuncha qanday ishlashini payqashlarini kutishni o‘z ichiga oladi. Tushunchaga oldindan hech qanday izoh berilmaydi va ular o‘zlarining o‘qishlari va yozishlari davomida grammatika qoidalarini tabiiyroq tarzda tan olishni o‘rganishlari kutilmoqda. Grammatikani kashf qilish va bu qoidalar jumlada qanday ishlashini tasavvur qilish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga konsepsiya misollaridan ajratilgan tushuntirish berilganidan ko‘ra, tushunchani osonroq saqlashga imkon beradi.

Induktiv o‘qitish usulining asosiy maqsadi grammatik tushunchalarni saqlab qolishdan iborat bo‘lib, o‘qituvchilar kognitiv tarzda ishlaydigan va talabalarning kontekstual xotirasida taassurot qoldiradigan usullardan foydalanadilar.

Deduktiv ta’lim. Grammatikani o‘qitishning deduktiv usuli – bu amaliyotdan oldin o‘qitishga qaratilgan yondashuv. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘z yozuvlarida bir xil grammatik tushunchaga duch kelmasidan oldin grammatik tushunchalarni tushuntirib berish lozim. Darsdan so‘ng bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlari ko‘rsatgan narsalarni topshiriq va mashqlar orqali takrorlashlari kerak.

Interaktiv ta’lim. Grammatikani o‘rgatishning yana bir usuli – interfaollikni darslarga kiritish. Grammatikani o‘rgatish uchun o‘yinlardan foydalanish nafaqat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qiziqtiradi, balki ularga o‘rganganlarini


eslab qolishga yordam beradi. Bu usul o'qituvchilarga o'z darslarini ularning turli ta'lim uslublariga moslashtirish imkonini beradi. Misol uchun, ta'limiy o'yinlar, jumboqlarni yoki qiziqarli onlayn viktorinalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shuningdek, model qoidalarni oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik amaliyoti sohasiga proyeksiyalash sanaladi. Modelning sxematik taqdim qilinishi natijasi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishishda barcha komponentlarning mazmuniy va tuzilmaviy o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy model jarayonini ham ko'zdan kechiramiz (1-rasm).

Modelning maqsadli blok qismida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishga qo'yiladigan malaka talablari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsad qilib olindi.

Modelning tashkiliy-metodologik blok qismida kompetensiyaviy, refleksiv, tizimli, shaxsiy-faoliyatli, faoliyatli metodologik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil izlanishga undovchi xususiyalar - mustaqillik, faollik, qiziquvchanlik, kreativlik kabi xususiyatlar; Ta'limni texnologiyalashtirish, ta'limni individuallashtirish, o'qituvchilarning maqsadga intilishi, faollik, asosli motivatsiyaga egalik tamoyillari asosida o'quv grammatik tushunchalarning predmet-subyekt mazmuni – motivatsion, mazmunli, operatsion, natijali, refleksiya komponentlari yoritildi. Tadqiqotimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirishda kompetensiyaviy, refleksiv, tizimli, shaxsiy-faoliyatli, faoliyatli yondashuvlarga tayanildi. Refleksiv yondashuv - bu o'z-o'zini tahlil qilish va o'z tajribalari, fikrlari yoki amaliyotlarini tahlil qilish jarayonidir. Bu yondashuv, asosan, shaxs yoki jamiyatning o'zini tushunishi va o'z faoliyatini yaxshilash uchun ichki tajriba va muhitni ko'rib chiqishga asoslanadi. Tizimli yondashuv bu biror muammoni yoki vazifani yechish jarayonida tizim sifatida qarash va uning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish prinsipidir. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv - bu bo'lajak o'qituvchilarning o'zi mustaqil ravishda bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuvda bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini boshqaradi, o'zini o'rganish jarayonida faol ishtirok etadi va o'quv jarayonida o'zini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Faoliyatli yondashuv - bu bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirish jarayoniga faol ravishda jalb qilinishi, o'quv materialini faqatgina eshitish yoki o'qish orqali emas, balki amaliy harakatlar orqali o'rganishning muhim tamoyilidir. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash, tahlil qilish va yaratish imkoniyatini beradi. Faoliyatli yondashuvning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning o'z bilimlarini faqat passiv ravishda qabul qilish emas, balki ulardan faol foydalanishga rag'batlantirishdir.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy modeli

Kompetensiyaviy yondashuv - bu ta'lim va o'qitish tizimida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning malakalarini va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarga amaliy ko'nikmalarni, muammolarni hal qilish va real hayot vaziyatlarida bilimlarni qo'llashni o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan. Kompetensiyaviy yondashuvda o'qituvchi nafaqat ma'lum bir mavzu bo'yicha bilimlarni berish, balki ularga muayyan ko'nikmalarni egallash va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

